

**CHERRI POMIDOR NAV VA DURAGAYLARINI
YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI**

UO‘T: 635.64+631.543.1

Saidov Mahmud Amonovich

Buxoro davlat universiteti

<https://orcid.org/0009-0000-1945-131X>

***Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda 2022–2024 yillar davomida Buxoro viloyati sharoitida cherri pomidor navlarini tanlash hamda Fazilat navini turli agrotexnologik usullarda yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi o‘rganilgan. Jadvallar asosida navlar kesimida yalpi hosildorlik, standart mahsulot ulushi, yalpi daromad, sof foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, soyalatish, tirgovuchlar, shpalerani va soyalatish uchun setka yopish kabi texnologik usullarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri baholandi. Olingan natijalarga ko‘ra, yuqori hosildorlikka ega navlar va intensiv agrotexnologiyalar qo‘llanilganida yalpi daromad hamda sof foyda ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgan. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarishda samarali nav va texnologiyalarni tanlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:** cherri pomidor, navlar, Fazilat navi, agrotexnologiya, iqtisodiy samaradorlik, hosildorlik, standart mahsulot, yalpi daromad, sof foyda, rentabellik, shpalera usuli, soyalatish, tirgovuchlar, intensiv texnologiya,*

Kirish. Bugungi kunda global oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda aholining sog‘lom ovqatlanishiga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida vitaminlarga boy va yuqori sifatli sabzavot mahsulotlarini yetishtirish qishloq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. So‘nggi yillarda iste’molchilar orasida yuqori ta’min sifatli, shirinligi hamda jozibador tashqi ko‘rinishi bilan ajralib turadigan cherry pomidorlariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Mazkur ekin kichik o‘lchamli mevalari, yuqori oziqaviy qiymati va dekorativ

xususiyatlari bilan nafaqat ichki bozorda, balki eksport salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq Buxoro viloyatining keskin kontinental, issiq va quruq iqlim sharoitida cherry pomidorini ochiq maydonlarda samarali yetishtirish uchun an'anaviy agrotexnik usullar yetarli darajada yuqori natijani ta'minlamaydi. Shu sababli, ushbu hudud sharoitiga moslashtirilgan zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash dolzarb hisoblanadi. Bu esa nafaqat hosildorlikni oshirish, balki mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Materiallar va uslublar. Dala tajribalari Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Buxoro tajriba stansiyasida o'tkazildi. Tadqiqotlarda xorijdan keltirilgan va O'zbekistonda yaratilgan cherri pomidorining 22 ta nav namunalari xo'jalik qimmatli belgilari bo'yicha baholandi. Navlarni sinashda mamlakatimizda rayonlashtirilgan cherri pomidorining Fazilat navi standart sifatida xizmat qildi. Shulardan istiqbolli nav va duragaylar ajratib olindi.

Shuningdek, Buxoro viloyatining keskin kontinental iqlimi hamda tuproq sharoitlarida hosildorlikni oshirishga qaratilgan cherri pomidorni tirgovuch yordamida hamda shpalera yordamida yetishtirish kabi texnologik elementini ishlab chiqish bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Tajribalar 4 ta qaytariqda amalga oshirilgan. Bunda quyidagi variantlar sinalgan:

- Ochiq dala (nazorat);
- Egatlar ustidan soyalatuvchi setka yopish;
- O'simliklarni tirgovuch yordamida o'stirish;
- Tirgovuchda o'stirib, setka yopish;
- Shpalera yordamida o'stirish;
- Shpalera ustidan setka yopish.

Tadqiqotlar sabzavotchilikda umumqabul qilingan uslublardan foydalanilgan holda bajarilgan [1, 2, 3]. Agrotexnologik tajribalarda Fazilat navi ekib o'rganildi. Cherri pomidor ko'chatlarini ochiq dala maydoniga ekishda ikki qatorli (90+50 sm)/2x30 sm sxemasi qo'llanilgan. Tadqiqotlar davomida fenologik

kuzatuvlar va biometrik hisoblashlar olib borildi; o'suv davrining davomiyligi, mevalarning hosildorligi va tovar sifatlari baholandi. Cherri pomidorlari ekiladigan dala maydoni mart-aprel oylarida ekishga tayyorlangan. Issiqxonaga cherri pomidor urug'lari ko'chat tayyorlash uchun issiqxonaga fevral oyining o'rtalarida ekilgan. Ko'chatlar Buxoro viloyati Romitan tumanida joylashgan «VARNET» QK issiqxona majmuasida innovatsion texnologiyalar asosida, maxsus kassetalarda yetishtirildi. Issiqxonada pomidor ko'chatlarini yetishtirish - fevral - aprel oylarida amalga oshirildi. Ochiq dalaga ko'chatlar aprel oyining 3-dekadasida ekilgan. Eksperimental ochiq dala maydonida ekinlarni parvarish qilish (sug'orish, qator oralariga ishlov berish, begona o'tlarni yo'qotish, kasallik va zararkunandalarga qarshi dorilash) cherri pomidorlarining o'suv davri davomida - aprel-avgust oylarida bajarildi.

Natijalar va munozara. Cherri pomidor navlarini 2022–2024 yillar davomida yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Barcha variantlarda jami xarajatlar bir xil — 75101 ming so'mni tashkil etgan. Eng yuqori umumiy hosildorlik 48,8 t/ga ko'rsatkich bilan Red pear navida kuzatildi. Ushbu navda yalpi daromad 177600 ming so'm, sof foyda esa 102499 ming so'mni tashkil etib, rentabellik 136,5 % ga yetgan. Shuningdek, Арбузный navi va Шоколадные пальчики F1 duragayi ham yuqori samaradorlik ko'rsatib, mos ravishda 116,8 % va 107,8 % rentabellikka erishilgan.

1-jadval

Buxoro viloyatida cherri pomidori navlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi (2022-2024 yy.)

Navlar va duragaylar	Xarajatlari, ming so'm	Yalpi xosil, t/ga	Standartga nisbatan		O'rtacha sotish narxi. so'm/kg	Yalpi daromad, ming so'm	Sof foyda, ming so'm	Rentabellik, %
			%	xosil t/ga				
Ertapishar								
Ампельные	75101	33,2	94	31,2	4000	124800	49699	66,2
Jingzhu	75101	33,3	93,	31,0	4000	124000	48899	65,1

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

№3 Red Pear 1	75101	48,8	91	44,4	4000	177600	102499	136,5
Смайлик	75101	38,9	95	37,0	4000	148000	72899	97,1
O'rtapishar								
Сладкая облепиха F ₁	75101	35,5	90	32,0	4000	128000	52899	70,4
Zebra	75101	37,4	96	35,9	4000	143600	68499	91,2
Red- cherry Large	75101	37,1	95	35,3	4000	141200	66099	88,0
Marglobe	75101	41,7	93	38,8	4000	155200	80099	106,7
Шоколадный черри	75101	44,9	73	32,8	4000	131200	56099	74,7
Шоколадный удлиненный	75101	33,7	86	29,0	4000	116000	40899	54,5
Арбузный	75101	43,3	94	40,7	4000	162800	87699	116,8
Оранжевый удлиненный	75101	37,2	81	30,1	4000	120400	45299	60,3
№2 Lilliput V.F.N. Ibrido F1	75101	29,9	89	26,6	4000	106400	31299	41,7
KS 1897 F	75101	37,4	89	33,3	4000	133200	58099	77,4
Fazilat (standart)	75101	36,2	95	34,4	4000	137600	62499	83,2
Медовые сливки F ₁	75101	38,2	89	34,0	4000	136000	60899	81,1
Рубиновые пальчики F ₁	75101	35,3	90	31,8	4000	127200	52099	69,4
Kechpishar								
Шоколадные пальчики F1	75101	41,9	93	39,0	4000	156000	80899	107,8
Жёлтые сливовидные	75101	34,1	68	25,2	4000	100800	25699	34,2
Febo	75101	36,1	94	34,0	4000	136000	60899	81,1
Жёлтый черри	75101	33,9	76	28,8	4000	115200	40099	53,4
Ko'rkam	75101	36,2	93	33,7	4000	134800	59699	79,5

O'rtacha ko'rsatkichlardan yuqori natija bergan navlar qatoriga yana Marglobe (106,7 %) va Смайлик (97,1 %) navlarini kiritish mumkin. Eng past iqtisodiy samaradorlik esa Желтые сливовидные F1 duragayida kuzatilib, rentabellik 34,2 % tashkil etgan. Bu holat asosan standart hosil ulushining pastligi va yalpi hosil kamligi bilan izohlanadi. Ko'pchilik navlarda sotish narxi bir xil (4000 so'm) bo'lgani uchun iqtisodiy farq asosan hosildorlik va standart mahsulot ulushiga bog'liq bo'lgan.

Standart hosil ulushi yuqori bo'lgan navlarda daromad va sof foyda ham mos ravishda oshgan. Umuman olganda, tadqiqot natijalari yuqori hosildor va standart mahsulot ulushi katta bo'lgan navlarni tanlash iqtisodiy jihatdan eng maqbul ekanligini ko'rsatdi (1-jadvalga qarang).

Tadqiqotda cherri pomidorining Fazilat navi turli texnologik usullarda (2022–2024 yy.) yetishtirilib, ularning iqtisodiy samaradorligi solishtirilib, baholandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yetishtirish texnologiyasi hosildorlik va iqtisodiy ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi (2-jadval).

Ochiq dala (nazorat) sharoitiga nisbatan egatlar ustidan soyalatish usulida jami xarajatlar 75101 ming so'mni tashkil etib, hosildorlik 36,2 t/ga va rentabellik 83,2 % bo'lgan. Tirgovuchlar yordamida o'stirish texnologiyasida xarajatlar biroz oshgan (81521 ming so'm), ammo hosildorlik 38,4 t/ga yetgan va rentabellik 84,5 % tashkil etgan.

Tirgovuchlar va setka bilan soyalatish usulida hosildorlik 40,5 t/ga gacha oshib, sof foyda 74622 ming so'mga yetgan va rentabellik 90,4 % bo'lgan. Shpalera o'stirish usuli esa yanada samarali bo'lib, hosildorlik 43,5 t/ga, sof foyda 82461 ming so'm va rentabellik 92,1 % tashkil etgan.

Eng yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar shpalera va setka bilan soyalatish texnologiyasida kuzatilib, hosildorlik 44,5 t/ga, sof foyda 87600 ming so'm va rentabellik 100,9 % ga yetgan. Shuningdek, jadvalda keltirilgan so'nggi intensiv texnologiya variantida eng yuqori natijalar qayd etilib, hosildorlik 50,5 t/ga, yalpi daromad 200000 ming so'm, sof foyda 103349 ming so'm va rentabellik 106,9 % ni tashkil etgan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, zamonaviy intensiv texnologiyalar, ayniqsa shpalera va soyalatish elementlarini qo'llash, cherri pomidor yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, yuqori hosildorlik va daromad olish uchun ushbu texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2-jadval

Turli texnologik usullarda yetishtirilgan cherri pomidorining “Fazilat” navining iqtisodiy samaradorligi (2022-2024-yy.)

Yetishtirishning texnologik usuli	Xarajatlar, ming so‘m			Hosildorlik, t/ga	Tovar hosili		Bir kg uchun o‘rtacha sotish narxi, so‘m/kg	Sotishdan olingan daromad, ming so‘m	Sof foyda, ming so‘m	Rentalik darajasi, %
	qoziqlar, shpalera va setka o‘rnatish uchun	boshqa xarajatlari	jami xarajatlari		%	t/ga				
Ochiq dala (nazorat)	-	9236	75101	36,2	95	34,4	4000	137600	62499	83,2
Egatlar ustidan soyalatish	5882	8174	81521	38,4	98	37,6	4000	150400	68879	84,5
Tirgovuchlar yordamida o‘stirish	3888	8975	82578	40,5	97	39,3	4000	157200	74622	90,4
Tirgovuchlar + setka bilan soyalatish	9770	8564	89539	43,5	99	43	4000	172000	82461	92,1
Shpalera o‘stirish	7599	9346	86800	44,5	98	43,6	4000	174400	87600	100,9
Shpalera + setka bilan soyalatish	13481	9935	96651	50,5	99	50	4000	200000	103349	106,9

Xulosa.

Ikkala jadval tahlili shuni ko‘rsatdiki, cherri pomidor yetishtirishda iqtisodiy samaradorlik birinchi navbatda hosildorlik va standart mahsulot ulushiga bog‘liq. Navlar orasida eng yuqori iqtisodiy samaradorlik Red pear, Арбузный navlarida va Шоколадные пальчики F1 duragayida kuzatilib, sof foyda va rentabellik yuqori darajaga bo‘lgan.

Fazilat navida turli texnologik usullar qo‘llanilganida, iqtisodiy ko‘rsatkichlar bosqichma-bosqich oshgani kuzatildi. Xususan, shpalera va setka bilan soyalatish hamda intensiv texnologiya qo‘llanilganida eng yuqori hosildorlik (50,5 t/ga), sof foyda (103349 ming so‘m) va rentabellik (106,9 %) qayd etildi. Barcha variantlarda sotish narxi bir xil bo‘lgani sababli, iqtisodiy samaradorlikka asosiy ta’sir etuvchi omillar sifatida hosildorlik va mahsulot sifati muhim ahamiyat

kasb etdi.

Umuman olganda, yuqori hosildor navlarni tanlash va zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni joriy etish cherri pomidor yetishtirishda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishning eng samarali yoʻli ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov, B.J., Azimov, B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar oʻtkazish metodikasi. Toshkent. 2021.
2. Hamroyev R. Buxoro viloyatining ochiq maydonlarida pomidor yetishtirish agrotexnikasi. Agro-ilm jurnali, 5(12). 2022. - 45-48.
3. Jones J. B. Tomato Plant Culture: In the Field, Greenhouse, and Home Garden. 2020. CRC Press.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi. (2023). Intensiv sabzavotchilik texnologiyalari boʻyicha tavsiyanomalar.
5. Srivastava A. K. Sustainable cultivation of cherry tomatoes in arid zones. Journal of Arid Agriculture, 18(3), 2022. - 210-222.